

NAMANGAN VILOYATIDA BIZNES SUBYEKTLARIDA INNOVATSIYALAR TAHLILI

Sobirov Mahammadniyoz Tavakkal o'g'li
UBS “Menejment” kafedrası o'qituvchisi
muhammadniyoz@gmail.com

Annotasiya: *Ushbu maqolada biznes subyektlarining innovatsion faoliyatini boshqaruv masalalari umumiy tahlil qilingan. Biznes sub'ektlarida innovatsion faoliyat boshqaruvi korxonaning raqobatbardoshligini oshirish, yangi mahsulot turini va yangi xizmatlarni yaratish, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va raqamli texnologik yangilanishlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan loyiha boshqaruv usullari ko'rib chiqilgan. Innovatsion faoliyat boshqaruvining samarali amalga oshirilishi biznesni tez rivojlantirish, bozordagi o'z mavqeini mustahkamlash va raqobatchilardan ustunlikka ega bo'lish masalalari o'rganib chiqildi.*

Kalit so'zlar: *Innovatsiya, biznes, Startup, franschayzing, boshqaruv, brend*

KIRISH

Hozirgi kunda biznes olami tezkor o'zgarishlar, yangi texnika va texnologiyalar asosida rivojlanib bormoqda. Innovatsiyalar — bu faqatgina yangi mahsulot yoki xizmatlarni yaratish bilan bog'liq emas, balki kompaniyaning ishlash yo'nalishlarini, strategik omillarini, menejment tizimlarini va mijozlarga xizmat ko'rsatish metodlarini ham o'zgartirishni anglatadi. Innovatsion faoliyat biznes sub'ektlari uchun raqobatbardoshlikni oshirish, xarajatlarni minimizatsiyalash, ishlab chiqarish hajmini oshirish va yangi bozor segmentlarni egallash imkoniyatlarini yaratadi. Biznes sohalarida innovatsiyalarni amalga oshirishning turli hil shakllari mavjud. Masalan, texnologik innovatsiyalar, tizimli innovatsiyalar, xizmatlar va mahsulotlar innovatsiyasi. Bu jarayonlarning hammasi tashkilotning o'zgachaligi va bozordagi mavqeini mustahkamlashga yordam beradi. Shuningdek, innovatsiyalar orqali korxonalar va tashkilotlar yangi imkoniyatlarni kashf etish, mijozlar talablarini yaxshiroq o'rganish va ularni qondirishda yanada foydali yondashuvlarni ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Innovatsion faoliyatni boshqarish nafaqat yirik kompaniyalar, balki kichik va o'rta biznes sub'ektlari uchun ham zaruriyatga aylanmoqda. Innovatsion qarashlar kichik va o'rta bizneslarga resurslarni mukammal ravishda boshqarish, xarajatlarni minimallashtirish va yangi bozor segmentlarini kashf etishda ko'maklashishi mumkin. Shu bilan birga, kichik kompaniyalar innovatsion faoliyatlarni amalga oshirishda yirik kompaniyalar bilan teng raqobatlashish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ushbu maqolada biznes sub'ektlarida innovatsion faoliyatni tadbiiq etishning zarurati, turli innovatsion qarashlar va ularni samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan holatlar haqida so'z yuritiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mamlakatimizning innovatsion rivojlanish yo'lini tutgan iqtisodiyoti - samarali bozor usullarini qo'llash va boshqarishga asoslangan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning progressiv ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlariga asoslanadi. Bunda bilim, axborot va innovatsiyalar orqali raqobatda ustunlikka erishiladi. Innovatsiyalarni joriy etish

tovarlar raqobatbardoshligini oshirish, yuqori rivojlanish darajasini saqlash va yuqori rentabellikni saqlab qolishning yagona yo'li sifatida yondashiladi. Mintaqalar iqtisodiyotini rivojlanishning innovatsion yo'lga o'tishi an'anaviy tarmoqlarni modernizatsiya qilishni, avvalo, ularning innovatsion qismining o'sishini nazarda tutadi.

Innovatsiya – bu bozor talabidan kelib chiqqan holda jarayonlar va mahsulotlarning sifatli o'sish samaradorligini ta'minlash uchun joriy etilgan yangilikdir. Inson intellektual faoliyati, uning fantaziyasi, ijodiy jarayoni, kashfiyotlari, ixtirolari va rasionalizatorligining yakuniy natijasi hisoblanadi.

"Innovatsion faoliyat" atamasi negizida, avvalambor, "innovatsiya" so'zi, ushbu so'z negizining o'zida esa "novasiya" so'zi yotadi. Innovatsiya - (ing. innovationas — kiritilgan yangilik, ixtiro) — 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar; 2) ilmiy-texnika yutuklari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo'llanilishi.

O'zbek tili lug'atiga bu so'zlar xorijiy tillardan kirib kelgan. Chunonchi, inglizcha "innovation", ruschasiga "innovatsiya" so'zi lug'atlarda "novovedenie", "novatorstvo" sifatida talqin etilgan. Rus tilida berilgan talqinga ko'ra bu so'z o'zbek tiliga "yangilik kiritish", "yangi usul", "kiritilgan yangilik" kabi ma'nolarda o'girilgan va izohlangan. "Novasiya", lotincha "novation" so'zi rus tilidagi lug'atlarda "izmenenie", "obnovlenie", o'zbek tili lug'atlarida esa "o'zgarish", "yangilanish" ma'nosida talqin etilgan.

"Innovatsiya" tushunchasi o'zining yangi hayotini "innovatsion kombinatsiyalar"ni tahlil qilish, iqtisodiy tizimlarning rivojlanishidagi o'zgarishlar natijasida XX asrning boshida Y.Shumpeterning ilmiy ishlarida boshlagan. Shumpeter 1900-yillarda iqtisodda ushbu termini ilmiy qo'llashga kiritgan dastlabki olimlardan edi.

Iqtisodiy adabiyotlarda "innovatsiya" tushunchasiga ta'rif berish uchun turli xil yondashuvlar paydo bo'la boshladi. E.A.Utkinning yondashuviga ko'ra innovatsiya deganda "ishlab chiqarishga joriy etilgan ob'ekt tushuniladi". V.A.Makarenko tahriri ostida nashr etilgan zamonaviy tushuncha va terminlar lug'atida "innovatsiya" terminiga yana ham kengroq tavsif berilgan. Lug'atda "innovatsiya" termini quyidagi mazmunda bayon qilingan: "innovatsiya - bu: texnika va texnologiya avlodining almashinuvini ta'minlash maqsadida iqtisodiyotga mablag' yo'naltirish; ilmiy-texnika taraqqiyotining mas'uli bo'lgan yangi texnika, texnologiyadan foydalanish; yangi g'oyalarni ishlab chiqish, sintezlash, yangi nazariya va modellarni yaratish va ularni hayotga tatbiq etish; individual tusdagi, takrorlanmas, siyosiy dasturlarni amalga oshirish; tilshunoslikda yangidan tashkil etish, nisbatan yangi ko'rinish".

I.Stepanova, innovatsiyani - ilmiy-texnika salohiyatini real, yangi mahsulot va texnologiyalarni yuzaga chiqaradigan jarayon sifatida tushunadi. L.Vodachek va O.Vodachkova innovatsiyalarni "korxonalar faoliyatining tizim sifatida maqsadli o'zgarishi" deb ta'riflaydilar.

NATIJALAR

Наманган вилоятининг ижтимоий-иқтисодий ривожланишининг 2024 йил январь-декабрь ойларида асосий кўрсаткичлари								
ТАҲЛИЛИ								
Т/Р	Кўрсаткич номи	Ўлчов бирлиги	2023 йил январь- декабрь	2024 йил				
				январь- март	январь- июнь	январь- сентябрь	январь- ноябрь	январь- декабрь
1	Ялпи ҳудудий маҳсулот							
	- ҳажми	млрд.сўм	58 173,7	9 253,8	23 403,3	47 519,9	х	68 916,4
	- ўсиш суръати	%	106,8	108,3	107,0	107,3	х	107,6
2	Саноат маҳсулотлари							
	- ҳажми	млрд.сўм	24 827,2	5 223,6	12 584,3	21 699,2	26 969,8	31 958,9
	- ўсиш суръати	%	-	109,8	109,8	108,4	108,2	108,3
3	Инвестиция							
	- ҳажми	млрд.сўм	19 220,1	9 203,3	16 708,7	30 716,0	32 576,2	53 340,5
	- ўсиш суръати	%	139,3	273,9	181,2	200,6	189,7	257,0
4	Пудрат ишлари							
	- ҳажми	млрд.сўм	10 819,1	1 461,3	3 580,2	8 567,0	11 102,3	12 755,5
	- ўсиш суръати	%	105,3	109,6	108,1	109,5	114,0	112,8
5	Чакана савдо							
	- ҳажми	млрд.сўм	21 544,3	4 256,2	9 766,0	16 500,0	21 372,9	25 081,2
	- ўсиш суръати	%	108,3	109,9	109,8	109,5	109,9	110,0
6	Қишлоқ, ўрмон ва балиқчилик хўжалиги							
	- ҳажми	млрд.сўм	32 868,0	2 946,4	11 936,5	23 804,9	х	35 798,8
	- ўсиш суръати	%	104,4	104,4	103,4	103,4	х	104,3
7	Жами хизматлар							
	- ҳажми	млрд.сўм	34 468,0	5 023,8	10 019,6	29 247,7	38 011,4	43 090,6
	- ўсиш суръати	%	111,5	110,6	112,3	112,1	112,1	112,3

Наманган вилоятининг 2024 йил январь-декабрь ойлари якуни билан ялпи ҳудудий маҳсулоти ҳажмлари					
Иқтисодиёт тармоқлари	январь-декабрь		жамидаги улуши фоизда		Ўсиш суръати фоизда
	2023 й.	2024 й.	2023 й.	2024 й.	
	(млрд. сўмда)				
I. Ялпи ҳудудий маҳсулот (ЯХМ)	58 173,7	68 916,4	100,0	100,0	107,6
шу жумладан:					
Тармоқларнинг ялпи қўшилган қиймати	57 165,3	67 818,2	98,3	98,4	107,6
Маҳсулотларга соф солиқлар	1 008,4	1 098,2	1,7	1,6	108,5
II. Тармоқларнинг ялпи қўшилган қиймати	57 165,3	67 818,2	100,0	100,0	107,6
Қишлоқ, ўрмон ва балиқчилик хўжалиги	18 605,4	20 206,9	32,5	29,8	104,3
Саноат (қурилиш соҳасини қўшган ҳолда)	13 221,8	16 687,6	23,1	24,7	109,9
саноат	8 659,5	11 294,3	15,1	16,7	108,3
қурилиш	4 562,3	5 393,3	8,0	8,0	112,8
Хизматлар	25 338,1	30 923,7	44,4	45,5	108,8
савдо, яшаш ва оқатланиш хизмати	10 725,6	13 324,0	18,8	19,6	111,7
ташиш ва сақлаш, ахборот ва алоқа	2 836,7	3 705,4	5,0	5,5	117,6
хизматларнинг бошқа соҳалари	11 775,8	13 894,3	20,6	20,4	104,0
Наманган вилояти иқтисодиётида кичик тадбиркорлик (бизнес)нинг улуши, % да				Аҳоли жон бошига ЯХМ (минг сўмда)	
	2023 й.	2024 й.		2023 й.	2024 й.
	74,3	73,4		19 187,8	22 239,0
Ўсиш суръати, % да				104,4	105,3

2024 йил январь-декабрь ойи якуни билан саноат маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажмини камайтирган корхоналар

сотув нархларида (ККС еси)

№	Шаҳар ва туманлар номи	Ишлаб чиқариш ҳажми (минг, сўм)		Ўсиш суръати, фоизда	Камайтириш суммаси (минг сўм)
		2023 йил	2024 йил		
Мингбулок тумани					
ЖАМИ		1 та корхона			-54 046 239
1	"NAM SEEDS" mas'uliyati cheklangan jamiyat xorijiy korxonasi	71 150 799,0	17 104 560,0	24,0	-54 046 239,0
Наманган тумани					
ЖАМИ		1 та корхона			-17 804 523
1	TOSHBULOQ-TEKS MChJ Qo'shma korxonona	197 979 101,0	180 174 578,0	91,0	-17 804 523,0
Поп тумани					
ЖАМИ		1 та корхона			-11 552 882
1	"PAPFEN XORJIY KORXONASI" mas'uliyati cheklangan jamiyati	72 457 845,0	60 904 963,0	0,0	-11 552 882,0
Тўрақўрғон тумани					
ЖАМИ		3 та корхона			-168 521 338
1	BIRYUZA GROUP MChJ xorijiy korxonasi	469 140 981,0	440 629 402,0	93,9	-28 511 579,0
2	FT TEXTILE GROUP MChJ Qo'shma korxonona	368 130 931,0	353 425 630,0	96,0	-14 705 301,0
3	"OQTOSH TEKSTIL" mas'uliyati cheklangan jamiyati	245 622 164,0	120 317 706,0	49,0	-125 304 458,0
Уйчи тумани					
ЖАМИ		1 та корхона			-33 402 002
1	"IDEAL-OIL TRADE" mas'uliyati cheklangan jamiyati	206 671 753,0	173 269 751,0	83,8	-33 402 002,0
Ушкўртон тумани					
ЖАМИ		2 та корхона			-93 233 486
1	UCHQO'RG'ON YOG' AJ	152 289 214,0	95 213 747,0	62,5	-57 075 467,0
2	UCHQO'RG'ONDONMAXSULOTLARI AJ	58 111 871,0	21 953 852,0	37,8	-36 158 019,0
Чуст тумани					
ЖАМИ		3 та корхона			-149 043 138
1	CHUST TEXTILE mas'uliyati cheklangan jamiyati	317 612 587,0	283 137 586,0	89,1	-34 475 001,0
2	NAMANGAN SEMENT mas'uliyati cheklangan jamiyati	585 156 529,0	501 192 453,0	85,7	-83 964 076,0
3	IFODA AGRO KIMYO HIMOYA MChJ	304 441 970,0	273 837 909,0	89,9	-30 604 061,0
Вилоят бўйича - жами					
ЖАМИ		10 та корхона			-543 883 383
1	NAMANGAN TO'QIMACHI MChJ	29 815 026,0	16 296 048,0	54,7	-13 518 978,0
2	"ART SOFT TEX" mas'uliyati cheklangan jamiyat qo'shma korxonasi	410 936 844,0	56 147 551,0	13,7	-354 789 293,0
3	AISHA HOME TEXTILE MChJ Qo'shma korxonona	117 452 208,0	65 110 498,0	55,4	-52 341 710,0
4	"NAMANGAN QOG'OZI" mas'uliyati cheklangan jamiyati	39 863 250,0	38 956 454,0	97,7	-906 796,0
5	MERRYMED FARM MChJ	219 293 888,0	179 502 609,0	81,9	-39 791 279,0
6	"BUNYODKOR-3" mas'uliyati cheklangan jamiyati	28 582 241,0	22 764 728,0	79,6	-5 817 513,0
7	MEXMASH MChJ	338 897 865,0	299 879 092,0	88,5	-39 018 773,0
8	UZ CHASYS MChJ Qo'shma korxonona	545 789 643,0	511 780 167,0	93,8	-34 009 476,0
9	NAMANGANMASH AJ	8 408 843,0	7 546 772,0	89,7	-862 071,0
10	NOSTANDART MChJ	7 358 826,0	4 531 332,0	61,6	-2 827 494,0
Вилоят бўйича - жами		22 та корхона			-1 071 486 991

Страница 1

Namangan viloyatida biznes sub'ektlarida innovatsiyalarni joriy etish va rivojlantirish uchun bir qator chora-tadbirlar va yondashuvlar mavjud. Bu viloyat O'zbekistonning eng rivojlangan hududlaridan biri bo'lib, iqtisodiyotning turli sohalarida yangiliklar va texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari keng. Quyida Namangan viloyatida biznes sub'ektlarida innovatsiyalarni rivojlantirishning aspektlari va yo'nalishlari keltirilgan:

1. Agro-sanoat sohasida innovatsiyalar

- Qishloq xo'jaligi texnologiyalari: Namangan viloyati qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan mashhur. Smart-fermerlik, aniq qishloq xo'jaligi (precision agriculture), suvni tejash texnologiyalari kabi innovatsiyalarni joriy etish orqali hosildorlikni oshirish mumkin.

- Agro-eksportni rivojlantirish: Mahsulotlarni qayta ishlash va eksport qilish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish. Masalan, meva-sabzavotlarni saqlash va qadoqlashning yangi usullari.

2. Texnoparklar va innovatsion klasterlar

- Namangan texnoparki: Viloyatda texnoparklar va innovatsion klasterlar tashkil etish orqali yangi texnologiyalar va startap loyihalarni qo'llab-quvvatlash mumkin. Bu yosh tadbirkorlar va innovatorlar uchun imkoniyatlar yaratadi.

- IT sohasida innovatsiyalar: Dasturiy ta'minot, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (big data) kabi sohalarda loyihalarni rivojlantirish.

3. Yashil iqtisodiyot va ekologik innovatsiyalar

- Qayta ishlash va chiqindilarni boshqarish: Chiqindilarni qayta ishlash va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish orqali atrof-muhitni muhofaza qilish.

- Yashil energiya: Quyosh, shamol va boshqa qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish.

4. Ta'lim va kadrlar tayyorlash

- Innovatsion ta'lim dasturlari: Viloyatda innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlash uchun malakali kadrlar tayyorlash. Masalan, Namangan muhandislik-texnologiya instituti va boshqa oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy kurslar va treninglar tashkil etish.

- Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash: Yosh tadbirkorlar uchun grantlar, inkubatorlar va akselerator dasturlari.

5. Turizm sohasida innovatsiyalar

- Aqlli turizm: Namangan viloyatining tabiiy go'zalliklarini rivojlantirish uchun aqlli turizm texnologiyalaridan foydalanish. Masalan, virtual va kengaytirilgan realitet (VR/AR) texnologiyalari orqali turistik joylarni targ'ib qilish.

- Eko-turizm: Tabiatni muhofaza qilish asosida turizmni rivojlantirish.

6. Davlat qo'llab-quvvatlash dasturlari

- Innovatsion loyihalarga grantlar va subsidiyalar: Davlat tomonidan innovatsion loyihalarni moliyalashtirish va qo'llab-quvvatlash.

- Soliq imtiyozlari: Innovatsion faoliyat bilan shug'ullanadigan korxonalariga soliq yengilliklari.

7. Xalqaro hamkorlik

- Chetdan investitsiyalarni jalb qilish: Xalqaro hamkorlik orqali zamonaviy texnologiyalar va tajribalarni Namangan viloyatiga olib kirish.

- Eksportni rivojlantirish: Innovatsion mahsulotlar va xizmatlarni xorijiy bozorlarga chiqarish.

8. Startap va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash

- Startap ekotizimi: Yosh tadbirkorlar uchun inkubatorlar, akseleratorlar va biznes-muhit yaratish.

- Kichik biznes uchun innovatsion yechimlar: Kichik va o‘rta biznes sub’ektlarida zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash.

9. Infratuzilma va logistika

- Aqlli transport tizimlari: Transport va logistika sohasida innovatsion yechimlarni joriy etish.

- Internet va raqamli infratuzilma: Viloyatda internet va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish.

10. Ijtimoiy innovatsiyalar

- Ijtimoiy loyihalar: Mahalla va jamoat joylarida innovatsion yechimlarni qo‘llash.

- Inklyuziv biznes: Ayollar, yoshlar va nogironlar uchun innovatsion biznes imkoniyatlarini yaratish

Namangan viloyatida innovatsiyalarni rivojlantirish uchun davlat, xususiy sektor va jamiyatning yaqin hamkorligi muhim. Bu viloyatda iqtisodiyotning turli sohalarida barqaror rivojlanishni ta’minlaydi.

Innovatsiya bo‘yicha ta’riflar tahlili

№	Manba yoki muallifning qisqacha nomi	Manba	Tushunchaning izohlanishi
1	O‘RQ-630 “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”	O‘zbekiston respublikasining 24.07.2020 yildagi O‘RQ-630 raqamli “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi qonuni. (1-bob 3-modda) (https://lex.uz/ru/docs/4910391)	Innovatsiya — fuqarolik muomalasiga kiritilgan yoki shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalaniladigan, qo‘llanilishi amaliyotda katta ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishishni ta’minlaydigan yangi ishlanma Innovatsion faoliyat — yangi ishlanmalarni tashkil etish, shuningdek ishlab chiqarish sohasida ularning o‘tkazilishi va amalga oshirilishini ta’minlash bo‘yicha faoliyat
2	O‘ME.I harfi	O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. I harfi. «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi». Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent. 199-b	Innovatsiya (ing. innovationas — kiritilgan yangilik, ixtiro) — 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta’minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag‘lar; 2) ilmiy-texnika yutuklari va ilg‘or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar,

			shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralari qo'llanilishi
3	Vodachek L., Vodachkova O.	Strategiya upravleniya innovatsiyami na predpriyatii. Moskva, Ekonomika, 1989.-167 s	Innovatsiya - korxonada faoliyatining tizim sifatida maqsadli o'zgarishi
4	Stepanova I.P.	Innovatsionniy menedjment. Uchebnik. 2014	Innovatsiya - ilmiy-texnika salohiyatini real, yangi mahsulot va texnologiyalarni yuzaga chiqaradigan jarayon
5	Shumpeter I.N.	Teoriya ekonomicheskogo razvitiya. Moskva, Progress, 2010. -344 s	Innovatsiya - tadbirkorlik qobiliyatiga asoslangan ishlab chiqarish omillarining yangi ilmiy-tashkiliy kombinatsiyasi
6	Tviss B.	Upravlenie nauchno-texniche-skimi novovvedeniyami: sokr. per. s angl. avt. predisl. i nauch.red. K.F. Puzinya. – M.: Ekonomika, 1989.– 271 s (S 152)	Innovatsiya - ixtiro yoki yangi g'oya bo'lib, iqtisodiy mazmun kasb etadigan jarayondir
7	Santo B.	Innovatsiya kak sredstvo ekonomicheskogo razvitiya: per. s veng. obsh. red. i vstup. st. B.V.Sazonova. M.: Progress, 1990.	Innovatsiya - ijtimoiy-iqtisodiy jarayon bo'lib, ixtirolar, g'oyalarni amalda qo'llash orqali takomillashtirilgan mahsulotlar va texnologiyalarni yaratish
8	Bezududniy F.F., Smirnova G.A., Nechaeva O.D.	Sushnost ponyatiya «innovatsiya» i ego klassifikatsiya // Innovatsii, 1998. № 2-3. (S25)	Innovatsiya inson faoliyatining har qanday sohasida yangi g'oyani amalga oshiruvchi, bozordagi mavjud ehtiyojlarni qondirishga hissa qo'shuvchi va iqtisodiy samara keltiruvchi jarayondir
9	Tichinskiy A.V	Upravlenie innovatsionnoy deyatelnostyu kompaniy: sovremennye podxodi, algoritmi, opit. Taganrog: TRTU, 2006. Taganrog: TRTU, 2006, http://www.aup.ru/books/m87/	Innovatsiya - ilmiy faoliyatning mahsuloti (tovar yoki xizmat) bo'lib, uning natijasida ishlab chiqarishda tub o'zgarishlar ro'y beradi, tub tashkiliy-ma'muriy va ishlab chiqarish hamda, texnologik o'zgarishlarni vujudga keltiradi.
10	Utkin E.A.	Upravlenie kompaniyami. Moskva, 1997.-304s	Innovatsiya -ishlab chiqarishga joriy etilgan ob'ekt
11	Jarikov V.V., Jarikov I.A., Odnolko V.G., Evseychev A.I.	Upravlenie innovatsionnimi processami : uchebnoe posobie / V.V. Jarikov, I.A. Jarikov, V.G. Odnolko, A.I. Evseychev. – Tambov : Izd-vo Tamb. gos. texn. unta, 2009. 6-s. (– 180 s.)	Innovatsiya faoliyati -ilmiy tadqiqot va rivojlanish natijalarini nomenklaturani kengaytirish, yangilash va mahsulot (tovar, xizmat) sifatini yaxshilash, ularni ishlab chiqarish texnologiyasini keyinchalik amalga oshirish va ichki va tashqi bozorlarda samarali amalga oshirish uchun tijoratlashtirishga qaratilgan faoliyatdir.
12	Toshmurodova B.E., Jiyanova N.	«Innovatsiya faoliyatni moliyaviy rag'batlantirish». O'quv qo'llanma. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2006.-110 b.	Innovatsiya - tushunchasi o'z ichiga nafaqat texnik izlanishlarni, balki korxonada ishi usulidagi yangiliklarni ham oladi
13	Taraxtieva G.I.	Innovatsion menedjment. Toshkent.:Fan va texnologiya. 2013, 9-b	Innovatsiya yangi g'oyalarning integratsiyasi tufayli modernizatsiya, yangi jarayonlarni, mahsulot, xizmat turini yaratish imkonini beradigan korxonaning texnologik rivojlanishini ta'minlaydi. Amaldagi yoki rejalashtirilgan faollikni optimallashtirish, doimiy yangilanish orqali korxonatijorat faoliyatida yangi g'oya va ilmiy-texnika tadbirlarini joriy etishni maqsad qilib qo'yadi.

14	Abdurahmonov I.	Abdurahmonov I. «Ilm mablag'ga aylansa, ana shu innovatsiya». https://kun.uz/news/	Innovatsiya – bu bilimni mablag'ga aylantirish, ya'ni knowledge based economy
15	Norov A.E.	Innovatsion faoliyat va uning natijalarini tijoratlashtirishning nazariy va uslubiy asoslari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" Ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2020 yil	Innovatsion faoliyat to'plangan texnologiyalar, bilimlar va uskunalarni tijoratlashtirishga mo'ljallangan texnologik, ilmiy, tashkiliy va moliyaviy chora-tadbirlar majmuasi. Innovatsiyalar – bu yangi yoki takomillashtirilgan tovarlar (xizmatlar), shuningdek yangi sifatga ega tovarlar yoki xizmatlardir
16	Xotamov I., Mustafakulov Sh., Isakov M., Abduvaliev A.	Korxonalar iqtisodiyoti va innovatsiyalarni boshqarish. O'quv qo'llanma. - T.: Iqtisodiyot, 2019 y., 341-342 b.	Innovatsiya xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda amalga oshirilayotgan ishlab chiqarishni, uning moddiy texnika bazasini yangilash hamda rivojlantirish maqsadida yangi g'oyalar va ishlanmalarni yaratish, o'zlashtirish va tatbiq etishga qaratilgan maxsus faoliyatdir. Faoliyat sifatida innovatsiyalarni insoniyat mehnat faoliyatining barcha jabhalarida qo'llash mumkin. Bu faoliyatni yuritish jamiyatda fan-texnika taraqqiyotiga olib keladi
17	Saidov M.	Saidov M.H. Oliy ta'lim iqtisodiyoti, investitsiyalari va marketingi: O'quv qo'llanma. – T.: Moliya, 2003 B.74	Innovatsiya - ishlab chiqarishda mavjud bo'lgan oldingi avlod texnikasi va texnologiyasini ancha samarali, ekologik sof va resurslarni tejashga imkon beruvchi ishlab chiqarish vositalari bilan almashtirishni ifodalaydi.

M.Saidovning fikricha, innovatsiya, avvalo, iqtisodiyotni rivojlantirishga qo'yilmalarning samaraliligi bilan tavsiflanadi, ishlab chiqarishda mavjud bo'lgan oldingi avlod texnikasi va texnologiyasini ancha samarali, ekologik sof va resurslarni tejashga imkon beruvchi ishlab chiqarish vositalari bilan almashtirishni ifodalaydi. Innovatsion faoliyat (yangiliklarni joriy etish) ishlab chiqarish yangi texnologiyalari negizida raqobatbardosh mahsulot (tovar) turlarini yaratish jarayoni. Bu jarayon g'oyaning paydo bo'lishi, uning maqsadini aniqlash va amalga oshirishdan to'g'ri ishlab chiqarishni tashkil etish, mahsulot ishlab chiqarish, uni sotish va iqtisodiy samara olishgacha bo'lgan ishlarni o'z ichiga oladi.

Yuqoridagi jadval izohlarida keltirib o'tganimizdagi ta'rifga ko'ra, I.Abdurahmonov "Ilm mablag'ga aylansa, ana shu innovatsiya" deya izohlaydi o'z yondashuvlarida.

Innovatsiya xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda amalga oshirilayotgan ishlab chiqarishni, uning moddiy texnika bazasini yangilash hamda rivojlantirish maqsadida yangi g'oyalar va ishlanmalarni yaratish, o'zlashtirish va tatbiq etishga qaratilgan maxsus faoliyatdir. Faoliyat sifatida innovatsiyalarni insoniyat mehnat faoliyatining barcha jabhalarida qo'llash mumkin. Bu faoliyatni yuritish jamiyatda fan-texnika taraqqiyotiga olib keladi.

Mualliflar innovatsiyalarni tavsiflashda, shuningdek mahsulot yoki xizmatning takror ishlab chiqarish va bozor jihatlarga emas, balki sifat-texnologik o'zgarishiga

asosiy e'tiborni qaratadilar. Bunda evolyusion yondashuv innovatsion jarayonning uzluksizligini tahlil qiladi, har bir innovatsiyaning iqtisodiy mazmuni esa faqat iqtisodiyotning “innovatsion sektori” nuqtai nazaridan aniqlanadi. Biroq, ishlab chiqarish omillarining yangi birikmasi va uning natijasida tovarlar va xizmatlar bozorida yuz berayotgan o'zgarishlar – innovatsion jarayonlarning yaqqol ko'rinishidir.

Innovatsion hodisalar turli xil bo'lganligi sababli “innovatsiya” kategoriyasiga turli yondashuvlar bo'lib bir necha xil ta'riflar berilgan.

Zamonaviy iqtisodiyotda innovatsiyalar nafaqat iqtisodiy o'sish, rivojlanish, tarkibiy siljishlar omilidir, balki ular barcha sohalarini, iqtisodiyot tarmoqlarini va umuman ijtimoiy hayotni qamrab olgan.

Innovatsiyalardan to'g'ridan-to'g'ri innovatsion faoliyatga o'tishda uning asosiy turlarini sanab o'tish mumkin:

a) **ishlab chiqarishni tayyorlash va tashkil etish, ular texnologiyalar va asboblarni sotib olish**, shuningdek ishlab chiqarish va sifat nazorati usullari, standartlari va jarayonlarida sodir bo'ladigan o'zgarishlarni o'z ichiga oladi;

b) **ishlab chiqarish oldi ishlanmalari**, ya'ni mahsulotni, asbob-uskunalarni va texnologiyalarni takomillashtirish, shuningdek ulardan to'g'ri foydalanish uchun xodimlarni qayta tayyorlash;

v) **yangi mahsulotlar marketingi** - bozorga yangi mahsulotlarni chiqarish bilan bog'liq asosiy faoliyat turlarini amalga oshirish (bozorni o'rganish, unga moslashish, reklama va boshqalar kiradi);

g) **tashqaridan turli shakllarda nomoddiy texnologiyani olish** (masalan, patentlar, lisenziyalar, nou-xau, savdo markalari, shuningdek texnologik ma'nodagi modellar va xizmatlar);

d) **moddiy texnologiyani sotib olish** - mashina va uskunalarni o'z ichiga olgan va mahsulotli yoki texnologik o'zgarishlarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan ishlar;

e) **ishlab chiqarishni loyihalashtirish** - texnik jarayonlar va xususiyatlarni aniqlash uchun rejalar va chizmalarni tayyorlashdan iborat.

Innovatsion faoliyat quyidagilarga asoslanadi: innovatsiyalarni an'anaviy, oddiy ishlab chiqarishdan *ustunligi tamoyili*; innovatsion ishlab chiqarishning *tejamkorlik tamoyili* (tijorat samaraga erishish ko'zda tutiladi); *moslashuvchanlik tamoyili* (har bir yangi g'oya uchun mustaqil innovatsion tuzilma tashkil etiladi, lekin u o'z navbatida boshqa muammolarni hal qilish uchun mutlaqo mos kelmasligi mumkin); *majmuaviy tamoyil* (masalan, birgina yorqin kashfiyot unga bog'liq bo'lgan bir nechta kichik innovatsiyalarni paydo bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin). Innovatsion faoliyatni boshqarish qoidalarini va uni qo'llash texnologiyasini bilish tegishli strategiya va taktikani to'g'ri shakllantirishga yordam beradi. Har qanday innovatsion faoliyatning samaradorligi tashkilotni ushbu yo'nalishda rivojlantirishni taqozo etadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot ishida innovatsion faoliyatni boshqarish bo'yicha ilmiy adabiyotlar o'rganildi va shu faoliyat bo'yicha ma'lumotlar, ko'rsatkichlar shakllantirildi. Ushbu

ma'lumotlar asosida nazariy yondashuvlarni umumlashtirish, ilmiy bilish, mantiqiy yondashuv usullaridan, shuningdek, Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari orqali ko'rsatkichlarni tahlil qilishda qiyoslash usulidan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda innovatsion g'oyalarni o'z vaqtida amaliyotga, jumladan ilm-fanga, sanoatga keng tadbiiq etish - islohotlar samaradorligining bosh mezonidir. Innovatsiya bozor talabidan kelib chiqqan holda jarayonlar va mahsulotlarning sifatli o'sish samaradorligini ta'minlash uchun joriy etilgan yangilikdir. Har qanday turdagi yangilik esa faqatgina yangilik emas, balki mavjud tizimning samaradorligini jiddiy ravishda oshiradigan omil sifatida ta'sir etishi zarur. Innovatsiya bilim va g'oyaning mablag'ga aylanishidir. Shu nuqtai nazardan korxonalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni baholashning amaliyotda qo'llaniladigan ayrim jihatlarini tadqiq etish katta ahamiyatga ega.

Innovatsiya - korxonalar yoki tashkilotning bozorga chiqarish (amaliyotga joriy qilish) uchun mo'ljallangan ijodiy faoliyatining samarasidir. Namangan viloyatida so'nggi yillarda innovatsion faoliyatni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan korxonalar va tashkilotlar salmog'i quyidagi rasm ma'lumotlari orqali yoritib o'tamiz.

2-jadval

Namangan viloyatida innovatsion faoliyatni moliyalashtirish manbalari

T.R	Moliyalashtirish manbalari	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2020 yilni 2018 yilga nisbati, o'zgarish sur'ati, %da
1	Korxonalar va tashkilotning o'z mablag'i, mln.so'm	120604,5	152954,6	127312,1	105,6
	Jamidagi ulushi, %	88,2	46,0	45,6	
2	Chet el investitsiyalari mablag'lari, mln.so'm	12456,4	14328,6	16457,3	132,1
	Jamidagi ulushi, %	9,1	4,3	5,9	
3	Tijorat banklari kreditlari, mln.so'm	3141,0	165081,2	133412,8	42,5 m.
	Jamidagi ulushi, %	2,3	48,0	46,1	
4	Boshqa mablag'lar, mln.so'm	335,5	55,9	67,8	20,1
	Jamidagi ulushi, %	0,4	1,7	2,4	
	Jami, mln.so'm	136723,6	332420,3	277250,0	2,0 m
	Jami, %	100,0	100,0	100,0	

Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ma'lumki, innovatsion faoliyatni rivojlanishida moliyalashtirish alohida ahamiyatga ega bo'lib, u bir nechta manbalar hisobidan amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan 2020 yilda korxonalar va tashkilotning o'z mablag'i hisobidan 127312,1 mln so'm, chet el investitsiyalari mablag'lari hisobidan 16457,3 mln so'm, tijorat banklari kreditlari hisobidan 133412,8 mln. so'm

va boshqa mablag'lar hisobidan 67,8 mln so'm mablag' sarflangan. 2020 yilda innovatsion faoliyatni moliyalashtirish 2018 yilga nisbatan 2 barobarga o'sdi.

Shuningdek, innovatsion faoliyatni moliyalashtirishda korxonalar va tashkilotning o'z mablag'idan yo'naltirilgan resurslar 2020 yilda 2018 yilga nisbatan umumiy ulushi 42,6 foizga kamaygan. Tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlarining moliyalashtirishda umumiy ulushi sezilarli 43,8 foizga o'sganligini ko'rish mumkin. Moliyalashtirishda chet el investisiyalari hisobidan moliyalashtirishning umumiy moliyalashtirishdagi ulushi kamaygan bo'lsada, yo'naltirilgan qiymat jihatidan yildan - yilga ortib bormoqda.

Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish manbalari ulushlari o'zgarishini qiyosiy tahlili

Viloyatda innovatsion faoliyat tahlillari natijasida ushbu faoliyatni rivojlanishiga to'siq bo'luvchi muammolarni ham ko'rish mumkin. Jumladan, davlat tomonidan innovatsion faoliyatni rag'batlantirish tizimini rivojlanishining pastligi; yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashning darajasini pastligi; marketing tadqiqotlarini olib boruvchi, ishlab chiqarishni loyihalashtiruvchi korxonalarni kamligi, innovatsion dasturlar, yangi texnologiyalar, mashina va jihozlar sotib olishdagi muammolar va boshqa shu kabilarni shular jumlasiga kiritishimiz mumkin.

Innovatsion faoliyatni rivojlanishiga makroko'lamdagi ta'sir etuvchi muammolarga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni prognoz qilishni qiyinligi, takomillashmagan va tez o'zgaruvchan qonunchilik bazasi, ta'lim sohasida mutaxassislarni tayyorlashning past darajasi, inqirozlar, makroiqtisodiy beqarorliklar, investisiyalarni himoyasizligini his etish va boshqa shukabalar.

Barchamizga ma'lumki, innovatsion faoliyatdagi ushbu muammolarni bartaraf etilishi, sohani rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, innovatsion faoliyatni boshqarish yangilik va tadqiqotlarni rivojlantirish uchun davlat tomonidan yaratiladigan shart-sharoitlar, ijtimoiy omillar, inson kapitalini rag'batlantirish va motivlashtirishga bog'liqdir, eng asosiysi intellektual kapital bilan bog'liqdir.

Xulosa

Innovatsion faoliyatning nazariy va amaliy tomonlarining tadqiqiga asoslanib quyidagi xulosani berishimiz mumkin: innovatsiya keng ma'noda korxonadagi o'zida moliyaviy, texnik-texnologik, tashkiliy, kadrlar va boshqa resurslarni bozorni qondiruvchi yangi mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish boshqarishni ifodalaydi. Bu korxonaning innovatsion muhitini shakllanish asosi sifatida ko'rish mumkin. Aniq instrumentlardan foydalanish korxonaning rejalashtirish, tashkil etish, motivlashtirish va istiqbollashning innovatsion rivojlanish strategiyasini shakllantirish jarayoni sifatida gavdalanadi.

Innovatsion faoliyatni boshqarishda quyidagilarni taklif etamiz:

1. Innovatsion faoliyatni boshqarish va uning samarasini oshirishda moddiy va nomoddiy rag'batlantirishning ichki va tashqi shakllaridan foydalanish. Bunda iqtisodiy faoliyatga yangi mehnat yondashuvini shakllantirish, inson resurslarini

kompetentlik darajasini rivojlanganligini ifodalovchi yangiliklarni joriy etishiga ragʻbatlantirishning koʻp qirrali shakllaridan foydalanish.

2. Ilmiy-innovatsion faoliyatni boshqarish samarasi strategik tadqiqot va ishlanmalarni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlashga bogʻliq.

3. Innovatsion faoliyatda xalqaro innovatsion dasturlar va loyihalarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish, ularni amalga oshirish uchun qulay huquqiy, iqtisodiy, moliyaviy va tashkiliy shart-sharoitlar yaratish, bu chora-tadbirlarni rivojlantirib borish.

4. Innovatsion faoliyat sohasida birgalikda kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish hamda, oʻzaro tajriba almashish.

5. Innovatsion faoliyatni samarali moliyalashtirish.

Umumiy qilib aytganimizda, innovatsion faoliyatni rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotini raqobatbardoshligini oshirishda katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Oʻzbekiston Respublikasining 2020yil 24 iyuldagi “Innovatsion faoliyat toʻgʻrisida”gi OʻRQ-630-sonli Qonuni. <https://lex.uz/ru/>

2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 noyabrdagi “Oʻzbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish toʻgʻrisida”gi PF-5264-sonli Farmoni. <https://lex.uz/>

3. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 apreldagi “Oʻzbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligi huzurida ilgʻor texnologiyalar markazini tashkil qilish toʻgʻrisida” PQ-3674-sonli qarori. https://lex.uz/pages/forpda.aspx?lact_id=3693976

4. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabrdagi «2019 — 2021 yillarda Oʻzbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida»gi PF-5544-sonli Farmoni. <https://lex.uz/>

5. Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi .I harfi. «Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi». Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent. -492 b

6. Mirziyoev Sh.M. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bagʻishlangan tantanali marosimdagi maʼruzasi. <https://president.uz/uz/lists/view/1328>

7. Mirziyoev Sh.M. “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”. "Oʻzbekiston" NMIU, 2018, 486 bet

8. Vodachek L., Vodachkova O.. Strategiya upravleniya innovatsiyami na predpriyatii. Moskva, Ekonomika, 1989.-167 s.

9. Makarenko V.A. Sovremenny slovar. 2 t. –M.:2000

10. Nechaev V.I.Mixaylushkin P.V. Ekonomicheskij slovar.-Krasnodar.:Krasnodar, “Atri” 2011. -464 s.

11. Pridodko V. I., Lyashko F. E.. Innovatsionniy menedjment v aviastroenii: Uchebnoe posobie. – Ulyanovsk: UIGTU, 2003. –70 s

12. Saidov M.H. Oliy taʼlim iqtisodiyoti, investisiyalari va marketingi: Oʻquv qoʻllanma. – T.: Moliya, 2003 B.74

13. Stepanova I.P. Innovatsionniy menedjment. Uchebnik. 2014.
14. Taraxtieva G.I. Innovatsion menejment. Toshkent.: Fan va texnologiya. 2013, -208 b.
15. Toshmurodova B.E., Jiyanova N. «Innovatsiya faoliyatni moliyaviy rag‘batlantirish». O‘quv qo‘llanma. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2006.-110 b.
16. Tichinskiy A.V. Upravlenie innovatsionnoy deyatelnostyu kompaniy: sovremennie podxodi, algoritmi, opit. Taganrog: TRTU, 2006
17. Upravlenie innovatsionnimi prosessami: uchebnoe posobie / V.V. Jarikov, I.A. Jarikov, V.G. Odnolko, A.I. Evseychev. – Tambov : Izd-vo Tamb. gos. texn. unta, 2009, – 180 s.
18. Utkin E.A. Upravlenie kompaniyami. Moskva, 1997.-304 s
19. Xotamov I., Mustafakulov Sh., Isakov M., Abduvaliev A.. Korxonalar iqtisodiyoti va innovatsiyalarni boshqarish. O‘quv qo‘llanma. - T.: Iqtisodiyot, 2019 y., - 483 b.
20. Ekonomika innovatsiy: Uchebnoe posobie. — M.: Ekonomicheskii fakultet MGU imeni M. Lomonosova, 2016.
21. Abdurahmonov I. «Ilm mablag‘ga aylansa, ana shu innovatsiya». <https://kun.uz/news/2018/08/07/ilm-mablagga-ajlansa-ana-su-innovatsiya-innovatsion-rivozlanis-vaziri-bilan-ekskluziv-subat?>
22. Norov A.E. Innovatsion faoliyat va uning natijalarini tijoratlashtirish nazariy va uslubiy asoslari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” Ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2020 yil. -131 b.
23. Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari. 2017-2021 yy.